



"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnali

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/3 (12)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli "Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma"si olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO'YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e'lon qilinishi mumkin bo'lgan jurnal sifatida ro'yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

ISSN 2049-3630

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
SAIDOVA Galina Karimovna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinbosari*) – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEKMURADOV Adham Sharipovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
MA'RUFOVA Gulnora Mahmudovna – *Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
SAIDOV Akmal Xolmatovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – *pedagogika fanlari doktori, dotsent.*
TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – *tibbiyot fanlari nomzodi.*
ZOXIDOV Azamat Azamjonovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
ZIYAYEV Azamad Xamidovich – *tarix fanlari doktori, professor.*
ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – *psixologiya fanlari doktori.*
TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Сайдова Галина Каримовна – *доктор экономических наук, профессор.*
Шоумаров Гайрат Бахрамович – *доктор психологических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайbergenovich (*Заместитель главного редактора*) – *доктор экономических наук, профессор.*
Бекмуратов Адхам Шарипович – *доктор экономических наук, профессор.*
Маъруфова Гулнора Махмудовна – *сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна – *доктор педагогических наук, профессор.*
Рахимова Нигина Хайруллаевна – *доктор экономических наук, профессор.*
Сайдов Акмал Холматович – *доктор юридических наук, профессор.*
Якубжанова Дилобар Батировна – *доктор педагогических наук, доцент.*
Ташмухамедова Дилорам Гафуржановна – *кандидат медицинских наук.*
Зохилов Азамат Азамjonovich – *доктор экономических наук, профессор.*
Зияев Азамат Хамидович – *доктор исторических наук, профессор.*
Абдусаматов Хасанбой Усмонjon угли – *доктор психологических наук.*
Туракулов Улугбек Холбутаевич – *доктор философии педагогических наук (PhD)*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna
(Editor-in-Chief) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Saidova Galina Karimovna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Shoumarov Ghayrat Bakhramovich – *Doctor of Psychological sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Bekmuradov Adkham Sharipovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Marufova Gulnora Makhmudovna – *Senator, Member of the Senate Committee of the Oliy Majlis on Women and Gender Equality.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Professor.*
Rakhimova Nigina Khayrullayevna – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Saidov Akmal Kholmatovich – *Doctor of Juridical sciences, Professor.*
Yakubjanova Dilobar Batirovna – *Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.*
Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna – *Candidate of Medical sciences.*
Zokhidov Azamat Azamjonovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ziyayev Azamad Khamidovich – *Doctor of Historical sciences, Professor.*
Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli – *Doctor of Psychological Sciences.*
Torakulov Ulugbek Holbutayevich – *Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

XALQARO TAHRIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,
Rossiya va Markaziy Osiyoni o'rganish markazi dotsenti
Xalqaro tadqiqotlar maktabi,
Javoharlal Neru universiteti,
Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,
Chelyabinsk davlat madaniyat instituti,
pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,
Texnologiya fakulteti boshlig'i,
London biznes va moliya maktabi,
Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,
Доцент Центра исследований России и Центральной Азии,
Школа международных исследований,
Университет Джавахарлала Неру,
Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина Иосифовна,
Челябинский государственный институт культуры,
доктор педагогических наук,
профессор

Доктор Прити Кесаван,
Руководитель Технологического факультета
Лондонская школа бизнеса и финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar
Assistant Professor
Centre for Russian and Central Asian Studies
School of International Studies
Jawaharlal Nehru University
New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna
Chelyabinsk State Institute of Culture
Doctor of Pedagogical Sciences,
Professor

Dr. Preethi Kesavan
Head, School of Technology
London School of Business and Finance, Singapore

MENEJMENT

Иноятова С.Р. Сравнительный анализ эффективности тренинговой программы по совершенствованию профессионально-важных качеств у лидеров молодежи.....4

SOTSILOGIYA

Butayeva X.Y. Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni oilaviy bolalar uyi sharoitiga moslashtirishning sotsiologik xususiyatlari10

Kadirova Z.A., Gaziyeva S.S. Intellektual migratsiyani tadqiq etishning konseptual asoslari14

Norboyeva S.M. Talabalarda ma’naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda gender tenglik va farqlarni hisobga olishning nazariy asoslari.....21

OILA VA JAMIYAT

Xatamov B.Q. O‘smirlar ijtimoiylashuvida virtual olam vositalaridan foydalanishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv mezonlari26

Rahimova M. Oilaga kelinning moslashish jarayonini psixologik jihatdan tadqiq etish32

Sadullayev Sh. Ayollarda oila-ish balansi ko‘rsatkichini shakllantirishning metodologik jihatlari37

PSIXOLOGIYA

Султанова А.А. Стоит ли замалчивать о проблемах суицида в Узбекистане?44

Ismaylova R. Oilaviy zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar bilan ishlashda kognitiv xulq-atvor terapiyasi texnikalarining imkoniyatlari51

Sharapova D.B. ‘Housewife syndrome’ as a psychological problem57

Axmedova D.O. Migranlarning yangi sharoitlarga ijtimoiy-psixologik moslashuvining nazariy tahlili68

Nurbayeva X.U. Gender identifikatsiyaning etnomadaniy xususiyatlari74

ILMIY YANGILIKLAR VA TAHLILLAR

Ochilova B.M. Ta’lim – gender tengligini ta’minlashda kuchli vosita.....79

Djoldasova S. Ayollarning biznesdagi huquq va imkoniyatlarini kengaytiruvchi biznes modellar88

Komilova X.T. Xotin-qizlarni ilm-fan taraqqiyotidagi faoliyati mazmuni va tahlil.....96

Suvankulov M. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ichki ishlar organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga oid normalari tahlili.....102

Nurdinova Sh. Migratsiyaning feminizatsiyalashuvi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ta’siri108

Nurmatova N.U. Vitagen ta’lim texnologiyasi asosida o‘quvchi qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish115



Djoldasova Saxipjamal,

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bo'limi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori*

sakhipjamal.djoldasova@gmail.com

AYOLLARNING BIZNESDAGI HUQUQ VA IMKONIYATLARINI KENGAYTIRUVCHI BIZNES MODELLAR

Annotatsiya. *Biznes model bu tadbirkorlikdagi asosiy biznes jarayonlarining tahlili va tavsifi bo'lib, u kimga va nima sotishni ko'rsatadi hamda qancha daromad va foyda olishni namoyon etadi. Ushbu maqolada ayollar ishtirokidagi biznes modellarning xorijiy va milliy amaliyoti tahlili natijasi ko'rsatilgan. Xususan, biznes modellar ko'pqirralilik, kooperativ tuzilmalar, mehnatga adolatli haq to'lash, ish bilan shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlab qolish hamda yetkazib beruvchilarning xilma-xilligi kabi asosiy g'oyalari asosida shakllangani aniqlangan.*

Tayanch so'zlar: *biznes model, ayollar tadbirkorligi, gender tenglik, huquq va imkoniyatlar, ijtimoiy tadbirkorlik, davlat qo'llab-quvvatlovi.*

Abstract. *The business model is the main method of business analysis and description of advanced business analysis, which includes many courses and practical exercises. This is stated in the article on participation in business modeling of foreign and national operations for the analysis of learning outcomes. In particular, it is determined that business models are formed from basic ideas such as intersectionality, cooperative structures, pay equity, work-life balance, and supplier diversity.*

Keywords: *business model, women's entrepreneurship, gender equality, rights and opportunities, social entrepreneurship, government support.*

Аннотация. *Бизнес модель – это анализ и характеристика основных бизнес процессов в предпринимательстве, которая помогает определить кому и что продавать, а также получать прибыль. В данной статье показаны результаты исследования зарубежного и национального опыта бизнес моделей с участием женщин. В частности, определено что бизнес модели формируются из основных таких идей, как многогранность, кооперативные структуры, справедливая оплата труда, сохранение баланса между личной жизнью и работы и разнообразие поставщиков.*

Ключевые слова: *бизнес модель, женское предпринимательство, гендерное равенство, права и возможности, социальное предпринимательство, государственная поддержка.*

Kirish. Dunyoda biznes modellarning har xil turlari mavjud bo'lib, ularning shakllanishi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxsning moliyaviy holati va davlatga mansubligi asosiy omillardan hisoblanadi. Chunki har bir davlatda biznesni yuritish uchun qonuniy erkinlik va cheklovlarni belgilovchi huquqiy muhit hamda moliyaviy yordam (kredit, subsidiya va haqazo) berish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Shu bilan birga, biznes modellarni shakllanishida jins va gender omillari ham muhim hisoblanadi. Ayol yaratgan yoki uning bevosita ishtirokidagi tadbirkorlikda davlat tomonidan yaratilgan barcha uchun tengdek bo'lgan huquq va imkoniyatlardan foydalanish jarayonida to'sqinliklar mavjudligi bilan o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Ushbu xususiyatlar va uni keltirib chiqaruvchi omillar haqida gapirishdan oldin "biznes

model”ning o‘zi nima ekani, u qanday jihatlar bilan oddiy tadbirkorlik faoliyatidan farqlanishi yoki o‘zaro bog‘liqlik jihatlari mavjud, degan savolga quyidagicha javob yozishimiz lozim.

Avvalombor, biznes model – bu biznes reja emas, shu bois biznes qilish uchun strategik qarorni qabul qilish va yechimlarni topish uchun asos bo‘lib xizmat qila olmaydi. Biroq biznes model tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun oldidagi xavf-xatarlarni baholash va oldini olish uchun juda qulay hisoblanadi. U birinchidan, biznesni qanday rivojlantirish, ikkinchidan, biznes jarayonlarini qanday qilib soddalashtirish. Uchinchidan esa, biznes rivoji uchun qulay manbaalarni tanlashni tushunib yetishga yordam beradi.

Eng muhimi biznes modellar startaplarini baholash, istiqbollarni aniqlash va yashirin xafvlar va g‘oyalarni sinab ko‘rishga yordam beradi. Mavjud biznes o‘z ishini to‘g‘rilash uchun zaif tomonlarni va rivojlanish nuqtalarini topishga xizmat qiladi. Ma’lumot uchun shuni aytish joyizki, dunyoda biznes modellarning eng ommabop shakli 9 qismdan – asosiy biznes elementlardan iborat Business Model Canvas¹ platforma (fremvork) asoschilari Aleksandr Ostervalder va Iv Pinelar tomonidan 2010-yilda ishlab chiqilgan. Ushbu platforma startaplarning imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi va bugungi kunda biznesni rejalashtirish hamda boshqarishning eng ommabop vositalardan biri hisoblanadi.

Maqsad va uni asoslash. Ayollar ishtirokidagi biznes modellarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular quyidagi asosiy g‘oyalar atrofida shakllanadi, xususan:

1. Ko‘pqirralilik (Intersectionality). Jinsi, irqi, kelib chiqishi, ijtimoiy holati va boshqa ajratuvchi belgilardan qat’i nazar tan olinishi. Ko‘pqirralik (interseksionalnost)ga asoslangan ushbu biznes modelda ayollarda ko‘p uchraydigan ijtimoiy muammolarni hal qilishga hamda inklyuzivlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

2. Kooperativ tuzilmalar (Cooperative structures). Ayollar ishtirokidagi biznes modellarda kooperativ tuzilmalarning mavjudligi undagi har bir a’zo qaror qabul qilishda teng huquqqa ega bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu biznes model undagi ishtirokchilarning tenglik asosidagi hamkorligi, ishtirokchiligi va jamoaviy mulkdorlikni hosil bo‘lishiga xizmat qiladi.

¹ https://en.wikipedia.org/wiki/Business_Model_Canvas

3. Mehnatga adolatli haq to‘lash (Pay equity). Ayollar ishtirokidagi biznes modellarda mehnatga haq to‘lashda tenglik prinsipiga ustuvorlik berilib, ushbu orqali ayollar o‘z mehnatiga adolatli rag‘batlantirilishini kafolatlaydi. Bu an’anaviy shakllangan mehnatga haq to‘lashda gender tengsizlikka qarshi kurashish hamda ish haqini belgilashda tenglik uchun kurashishni anglatadi.

4. Ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanatni saqlab qolish (Work-Life balance). Ushbu biznes modellar korxonalarda xodimlar, eng asosiysi ayol xodimlar kasbiy va shaxsiy majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Homiladorlik, bola tug‘ish va bola parvarishlash ta’tili kabi ijtimoiy ta’tillar, shuningdek, qulay ish grafigini taqdim etish shular jumlasidandir.

5. Yetkazib beruvchilarning xilma-xilligi (Supplier diversity). Ushbu biznes modelda ayol mulkdor bo‘lgan korxonalarga hamkorlarni faol topish hisobiga ularning xilma-xilligini ta’minlash. Ushbu yondashuv orqali tadbirkor ayollar uchun qulay iqtisodiy sherikchilik va inklyuziv biznes-ekotizimini yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda bu borada o‘ziga xos xususiyatlarga ega biznes modellar shakllanmoqda va bunda asosiy omillardan biri – ayollar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishida. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 17 milliondan ziyod qismini xotin-qizlar tashkil etadi, tadbirkorlikda ayollarning ulushi esa kichik biznes vakillari umumiy sonining 25 foiziga teng. Ushbu yo‘nalish oldida turgan ustuvor vazifalardan biri tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida xotin-qizlar ulushini 40 foizga yetkazishdan iborat. Buning uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirildi, albatta. Ushbu ishlar huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekistonda ayollar ishtirokidagi biznesni modellarning o‘ziga xos jihatlari shundan iboratki, unda, avvalombor, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan choralar amalga oshiriladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining asosiy vazifalari qatorida ayollar ishtirokidagi biznesni qo‘llab-quvvatlash etib

belgilandi. Xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o'rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish mazkur strategiyaning asosiy vazifalaridandir.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida Prezident va Hukumat tomonidan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ularning ijrosini ta'minlash davlat hokimiyati organlarining barcha pog'onalaridagi vakillarining mas'ul sifatida belgilanib, quyidagi yo'nalishlarda ishlar tashkil qilingan. Bularni quyidagi yo'nalishlarda ko'rishimiz mumkin, xususan:

Birinchidan, ayollarni biznes yuritishga o'rgatish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "Xalq banki", "Biznesni rivojlantirish banki" va "Mikrokreditbank" Aksionerlik-tijorat banklari Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda tashabbuskor xotin-qizlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashish, mahallalarda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni sotish, kooperatsiya asosida loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish, loyihalar amalga oshirilishini kuzatib borish va ayol tadbirkorlar bilan doimiy muloqot qilishini nazarda tutuvchi xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi.

Ikkinchidan, ayollar tadbirkorligini yo'lga quyishda muammolarni o'z vaqtida va samarali hal etishda davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining imkoniyatlarini yanada kengaytirish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi 292-son qarori bilan "doimiy daromad manbayiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda ularning bandligini ta'minlash" kabi vazifani bajarish "Mahalla yettiligi"ga kiritilgan hokim

yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)² sifatida belgilandi.

"Mahalla yettiligi" a'zolarining faoliyati tegishincha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Ichki ishlar vazirligi, Soliq qo'mitasi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar ishlari agentligining bo'linmalari hamda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlarining tuman (shahar) rahbarlari tomonidan tasdiqlanadigan har oylik ish rejalar asosida amalga oshiriladi.

Masalan, xotin-qizlar faoli uchun xotin-qizlar muammolari va qiziqishlarini o'rganib, ularga ko'maklashish baholash mezonlaridan biri hisoblansa, hokim yordamchisi uchun doimiy daromad manbayiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda ularning bandligini ta'minlash, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, kredit va subsidiyalar ajratilishida ko'maklashish, mahallalarda mikroloyihalar manzilli dasturini shakllantirish va ularning amalga oshirilishiga ko'maklashish yoki tomorqa va ijara yerlaridan samarali foydalanish ishlarini tashkil etish kabi vazifalarning bajarilishi baholash ko'rsatkichlari sifatidan belgilangan.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish. Har qanday tadbirkorlik moliyaviy qo'llab-quvvatlash va investitsiya kiritishni talab qiladigan faoliyat bo'lib, ayollar tadbirkorligi bundan mustasno emas. Bu borada davlat tomonidan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhimdir. Shu bois, mamlakatimizning vakolatli davlat organlari nodavlat tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar, xususan, YeXHT, BMT, BMTTD, USAID, YeTTB, ITB va qator xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda qo'shma loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Masalan, "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasi tomonidan shu kunga qadar 100 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan bo'lsa, shundan 50 320 nafar ayol seminar va malaka

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi "Mahalla yettiligi" faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 292-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6931871>.

oshirish ta'lim dasturlarida ishtirok etgan, 43 ming nafar ayol esa biznes asoslariga o'qitilgan hamda 30 ming atrofida yangi ish o'rni yaratilgan³.

Shu bois sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o'rniga ijobiy ta'sir ko'rsatib, Jahon banki huquqiy sohada gender tenglikka erishish bo'yicha "Ayollar, biznes va qonun 2024" yillik hisobotini e'lon qildi. Unda O'zbekiston beshta ilg'or o'zgarishlar qilgan davlatlar qatoriga kirdi. O'zbekiston Singapur, Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari bilan bir xil ball to'pladi, shuningdek, Markaziy Osiyoda eng yaxshi natijalarni qayd etdi.

O'zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko'rsatib kelgan. Masalan, Yildiz Holding kompaniyasi egasi Edjem Altiok tadbirkorlik faoliyatida ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini ruyobga chiqarishga ularning biznesiga investitsiya kiritish orqali yordam berib keladi. Kompaniya o'z faoliyatida "BMT ayollar" tuzilmasi bilan hamkorlik olib boradi. Xususan, Yildiz Holding tomonidan oxirgi uch yilda hududiy va global darajada ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun 4 million dollar investitsiya qilingan, ayollar boshchiligidagi 53 ta startapni moliyalashtirgan. EXPO ayollar tadbirkorligi ko'rgazmasida investor sifatida doimiy ishtirok etib, ayol tadbirkorlarga murabbiylik qilmoqda. Shuningdek, muloqot, o'qitish va biznesni rivojlantirish uchun platforma yaratgan. Ushbu hamkorlik orqali Edjem Altiok rahbarlik qilgan loyiha ishtirokchilariga imkoniyat berish va ularni biznes g'oyalari, bozor salohiyati va o'sish strategiyalarini potensial investorlarga samarali yetkazish uchun zarur bilim va vositalar bilan jihozlash hisoblanadi.

To'rtinchidan, nodavlat tashkilotlarining ishtirokini qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyuldagi PQ-329-son qarori⁴ bilan ayollarning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o'qitish va bandligini

³ Tadbirkor ayollarni qo'llayotgan tashkilot endi xalqaro maqomda // <https://yuz.uz/news/tadbirkor-ayollarni-qollayotgan-tashkilot-endi-xalqaro-maqomida>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyuldagi "Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-329-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6126565>.

ta'minlash maqsadida nodavlat tashkilotlarni jalb qilish orqal quyidagi mexanizm yaratildi, xususan:

birinchidan, yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlikka o'qitish dasturlarida ishtirok etuvchi nodavlat ta'lim tashkilotlarining elektron reyestriga kiritilgan nodavlat ta'lim tashkilotlari, professional ta'lim muassasalari hamda Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining kasb-hunarga o'rgatuvchi o'quv kurslariga yo'naltirilgan yoshlar va xotin-qizlar uchun Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan uch tomonlama shartnoma asosida o'quv kurslari qiymatining 70 foizi, biroq 1 mln so'mdan oshmagan qismi kompensatsiya qilib beriladi;

ikkinchidan, uch tomonlama shartnoma fuqaro, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining hududiy boshqarmalari va mazkur badda ko'rsatilgan ta'lim tashkilotlari o'rtasida mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchilari tavsiyasiga ko'ra tuziladi;

uchinchidan, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar"ga kiritilgan yoshlar va xotin-qizlarni Oliy maktab tomonidan o'qitish ishlari to'liq bepul amalga oshiriladi;

to'rtinchidan, nodavlat ta'lim tashkilotlari, professional ta'lim muassasalari hamda Oliy maktabning kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslarini yakunlagan ishsiz xotin-qizlar Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan mavjud bo'sh ish o'rinlariga joylashtiriladi;

beshinchidan, tadbirkorlik yo'nalishi bo'yicha o'quv kurslarini yakunlagan xotin-qizlarga tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tishidan boshlab, o'z faoliyatini mustaqil olib borishiga qadar bo'lgan jarayonda hokim yordamchilari tomonidan tizimli ravishda amaliy yordam ko'rsatib boriladi.

Ushbu ishlarni tizimli bajarish uchun Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Oliy maktab bilan birgalikda *birinchi navbatda*, har bir mahalla kesimida ishsiz deb e'tirof etilgan va ishlash yoki tadbirkorlik qilish istagini bildirgan xotin-qizlarning birlamchi ro'yxatini shakllantiradi; *ikkinchidan*, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi "Ishga

marhamat” monomarkazlari, Oliy maktabining hududiy filiallari, Savdo-sanoat palatasida shakllantirilgan ro‘yxatlarga kiritilgan xotin-qizlarning kasb-hunarga (“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi elektron axborot tizimida mavjud bo‘sh ish o‘rinlaridan kelib chiqqan holda) va tadbirkorlikka o‘qitilishini ta‘minlaydi; *uchinchidan*, hokim yordamchilari tavsiyasiga asosan kasb-hunar yo‘nalishlari bo‘yicha kurslarni tugatgan xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash borasida “Onlayn mahalla” platformasi⁵ни Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигининг “Mehnat.uz” platformasi⁶ga integratsiya qilish orqali ularni mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga yo‘naltiradi.

Beshinchidan, tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash. Ayol ishtirokidagi biznes modelni shakllantirishda e‘tiborlik molik masala – bu o‘z biznesini boshlayotgan yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan ayollar har xil qo‘rinishda va har xil muhitda ham tazyiq va zuravonlikka duch kelish ehtimoli yuqori. Bu borada O‘zbekistonda ayollarni himoya qiluvchi me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. 2023-yil aprel oyida Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga oiladagi zo‘ravonlikka, jumladan, oilaviy munosabatlardagi jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritildi. Shuningdek ushbu turdagi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Shu bilan birga, oilaviy zo‘ravonlikdan tashqari jamoat joylarda ularga nisbatan shaxsiy chegaralarni buzuvchi holatlarni bartara etishga qaratilgan qonuniy choralar ishlab chiqildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-sonli Qonuniga asosan yangi 41-1-modda bilan to‘ldirildi⁷. Unga ko‘ra, shahvoniy shilqimlik qilish, ya‘ni shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul

⁵ “Online-mahalla” axborot tizimi ishlab chiqishdan ko‘zlangan bosh maqsad // <https://online-mahalla.uz/>

⁶ Yagona milliy mehnat tizimi — my.mehnat.uz saytidan foydalanish bo‘yicha video qo‘llanmalar // <https://mehnat.uz/uz/pages/yagona-milliy-mehnat-tizimi-mymehnatuz-saytidan-foydalanish-buyicha-video-qullanmalar>

⁷ O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-sonli Qonuni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son // <https://lex.uz/ru/docs/97664>.

bo‘lgan hamda uning sha‘ni va qadr-qimmatini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarni bir marta qo‘pol ravishda yoki bir necha marta sodir etganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki besh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi. Agarda xuddi shunday huquqbuzarliklar ma‘muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o‘n besh sutkagacha muddatga ma‘muriy qamoqqa olishga sabab bo‘lishi belgilangan.

Oltinchidan, munosib mehnat sharoiti va ish haqi bilan ta‘minlash. Har yili Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) dunyoning aksariyat mamlakatlarida erkaklar maoshi hali ham ayollar maoshidan yuqori ekanligini ma‘lum qiladi. 2022-yilda tashkilot hisob-kitoblariga ko‘ra, global o‘rtacha ish haqi farqi 20% ni tashkil qildi. Tafovutning saqlanib qolishining asosiy sabablari bir necha bor ta‘riflangan: ular orasida ta‘lim olishning tengsizligi, ishning kasbiy segregatsiyasi va “oilaviy” omillar (tug‘ilish va onalik) kiradi⁸.

O‘zbekistonda ayollarga erkaklar bilan bir xil qiymatdagi mehnat uchun teng haq to‘lashni kafolatlovchi me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, ayrim sohalarda ayollar mehnatidan foydalanishga qo‘yilgan cheklolar bekor qilindi. 2022-yil oktyabr oyida mehnat huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlar va konvensiyalarga mos keladigan ushbu qoidalarni o‘z ichiga olgan yangi Mehnat kodeksi qabul qilindi.

2023-yilning avgust oyida Jahon banki iqtisodchisi ayollar va erkaklar maoshi bo‘yicha tadqiqoti doirasida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda tajriba o‘tkazdi. Tadqiqot xulosasida maosh to‘lashda jinslar o‘rtasidagi farq saqlanib qolayotganiga asosan ayollarga nisbatan shakllangan stereotiplar sababchi ekani aytilgandi⁹.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ayol ishtirokidagi biznes modellarning shakllanishi

⁸ Global Gender Gap Report 2023 // https://www3.weforum.org/docs/WEF_GGGR_2023.pdf

⁹ Usha joyda.

ular yaratgan tadbirkorlik faoliyati davomida duch keladigan muammolar mavjud. Xususan:

Pitching va kelishuvlar. Ayollar asosan investitsiyaviy loyihalarning taqdimoti jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Xususan, ularning ish va shaxsiy-oilaviy hayoti o'rtasida muvozanatni saqlay olishligiga ishonchsizlik bildirish;

Aloqada tengsizlik. Ayollarda erkaklarga nisbatan professional aloqalar kam va unga kirish imkoniyati cheklangan. Aloqalarni yaxlilash imkoniyatini beruvchi biznes tadbirlarga asosan erkaklar jalb qilinadi;

Yashirin qarashlar. Investorlar biznesni baholashda albatta uning egasi ayol yoki erkakligiga katta e'tibor qaratadi;

Xarassment (shilqimlik). Ayollar ishtirokidagi tadbirkorlikda sherikchilik, hamkorlik yoki yollanma tarzda ishlash davomida erkaklar tomonidan xarassment, ya'ni shaxsiy chegaraning buzilishi, ta'qib qilish, kamsitish va shaxsiy hayotning buzilishiga olib keluvchi holatlarga duch kelmoqda. Masalan, Teodora Goods agrokompaniyasi boshqaruvchisi, agrosektor uchun Dalatek IT-platformasi yaratuvchisi Dildora Atadjanova o'z biznesimga ega bo'lganimcha ko'plab xarassment holatlarga uchraganman (bir necha oylar davomida unga turmush qurishni taklif qilgan rahbari yo menga turmushga chiqasan, yoki ishdan bo'shasan degan) deydi spot.uz internet-nashriga bergan intervyusida.

Bu borada xalqaro tashkilot va ekspertlar milliy qonunchilik tizimida ayollarni ta'qib qilish, xususan, jismoniy, psixologik va turdagi ta'ziq va zo'rvonliklar "jinoiy qilmish" sifatida olib qarash va bu qilmish uchun javobgarlik belgilashni qo'llab-quvvatlaydi. Ayol tadbirkorlarning faoliyatida duch keladigan ushbu muammolar inson ongi va sanasi bilan bog'liq. Bu borada davlat oldida gender jihatlarni inobatga olgan chora-tadbirlarni qabul qilish va amalga oshirish muhim hisoblanadi. Xususan, gender omillarga tayangan investitsiya loyihalarni qo'llab-quvvatlash ayollarning samarli biznes yuritishda muhimdir. Ayol tadbirkorlarga investitsiya taqdim qilish – bu nafaqat gender tenglikni ta'minlash masalasi, balki to'g'ri ishbilarmonlik qarori hisoblanadi. Ayol tadbirkorlar xilma-xil va kreativ hyalar va yechimlar bera oladi. Ular bozordagi muammolar va mijozlarning istagini ko'ra bilish qobiliyatga ega bo'lganligi bois, innovatsion biznes-g'oyalarni taqdim eta oladi. Shuningdek, ularning hojalari moliyaviy

barqarorlik va o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda, ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni qamrab oladi. Xususan, ayollarni ish bilan ta'minlash, qulay ish shaoritini yaratish kabilar shular jumlasidandir. Ayollar ishtirokidagi biznes modellarni yaratish uchun ayollarning huquqlari va imkoniyatlarini cheklovchi ana'anaviy qoidalar bugungi kunga kelib yangi qoidalarning kirib kelishini taqozo etmoqda. Bunda, avvalombor, har bir ishchi, xodim uchun inklyuziv va adolatli muhitni yaratishni nazarda tutadi. Ushbu qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Yetakchilar rollarini qayta ko'rib chiqish. Biznes yuritishning ana'anaviy qoidalari ko'pincha yerkaklar uchun yetakchilik lavozimlarni taqdim qiladi, ayollar uchun esa "oynali to'siq" (стеклянный потолок)ni o'rnatadi. Ayollar ishtirokidagi biznes modellari yetakchilik jamoalarining xilma-xilligini targ'ib qilish orqali bunga qarshi chiqadi. Masalan, The Body Shop kompaniyasi asoschisi Anita Roddik¹⁰, go'zallik industriyasiga inqilobiy o'zgartishlar kiritgan. U kompaniyani boshqarishda manbaalardan ahloqiy foydalanish, ekologik barqarorlik va ayollarning huquq va imkoniyatlarini ta'minlash ustuvor siyosat etib belgiladi.

2. Adolatli rahbatlantirish va imtiyozlar taqdim etish. Tan olish lozim, xanuzgacha gender tengsizlik ko'pgina sohalarida mavjud. Ya'ni ayollar erkaklarga nisbatan ish haqi kamroq oladi. Ayollar ishtirokidagi biznes modellarni yaratishda "teng mehnat sharoiti – teng ish haqi" qoidasiga asoslanadi. Xodimlarning ish haqlarida tengsizlikni aniqlash uchun ish haqi bo'yicha davriy audit o'tkazish, ish haqini hisoblash formulasini xodimga taqdim etish orqali shaffoflik va hisobdorlik shunga yaqqol misol bo'la oladi.

3. Qulay ish grafigi. Ana'naviy soat 09.00 dan 17.00 gacha bo'lgan ish vaqti ko'pgina ayollar uchun noqulayliklar yaratadi. Ayollar ishtirokidagi biznes modellar masofaviy ish, ish o'rinlarni bo'lish va ish xaftalarini qisqartirish orqali qulay mehnat sharoitini yaratishni targ'ib qiladi. Bunday ko'nikmalar xodimlarning ish va shaxsiy hayotini samarali olib borishini ta'minlaydi.

4. Mahsulotni yetkazib berish qoidalari va ijtimoiy javobgarlik. Ayollar ishtirokidagi biznes modellar yetkazib beruvchilarni tanlashda ahloqiy qoidalar, adolatli mehnat amaliyoti va jamoatchilikning ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, ayoq kiyim ishlab chiqaruvchi TOMS

¹⁰ Discover our purpose // <https://www.thebodyshop.com/en-gb/about-us/brand-values/a/a00006>

Shoes¹¹ kompaniyasi bitta juft poyabzalga yana bitta juft poyabzal ishlab chiqib, uni ehtiyojmand bolaga xayriya qilish bo'yicha birinchilardan ijtimoiy hamjihatlikni yo'lga qo'ygan.

5. Ko'pqirralilik va inklyuzivlik. Ayollar ishtirokidagi biznes modellar shaxs va shaxsiyat bilan bog'liq odamlar o'rtasidagi farqlovchi belgilar (irq, millat, nogironlik va boshqalar)ni yo'q qilishga qaratilgan siyosatni tan oladi. Masalan, Beauty Bakerie¹² kosmetika ishlab chiqaruvchi kompaniya barcha rangdagi terilar uchun keng turdagi Mahsulotlarni taqdim etadi. Ushbu brend o'zining marketing kampaniyasida kelib chiqishi har xil irq, millat va boshqa ajralib turuvchi belgilarga ega modellarni tanlab oladi.

Ayollar ishtirokidagi biznes modellarni o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, unda "gender yo'naltirilgan marketing" mavzusiga chuqurroq kirib borishini taqozo etadi. Buning asosiy maqsadi – an'anaviy reklama strategiyalardan gender yo'naltirilganlik va inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qilish. Shundan kelib chiqib, ayollar ishtirokidagi biznes modellarda reklama strategiyalari quyidagi yo'nalishlarda shakllanadi. Xususan:

1. Gender stereotiplarni tushunish. Marketingda ana'naviy gender stereotiplarga qarshi turish. Bunda brendlar inklyuziv va dolzarb mavzularda reklama ishlarini tashkil etadi.

2. Turli auditoriyaga moslashish. Gender yo'naltirilgan marketing keng ko'lamdagi auditoriyani qamrab oladi. Bunday yondashuv har xil gender guruhlarning ehtiyoji, xohishi va tajibasini inobatga oladi.

3. Til va muloqot. Gender sezuvchanlikka asoslangan marketing mahsulotlarida til va muloqot stili muhim rol ni o'ynaydi. Inklyuziv tildan foydalanish hamda jinslarni kamsituvchi maxsus atamalardan foydalanishdan voz kechish mijozlarning barchasi uchun qulay muhitni yaratishga xizmat qiladi.

4. Vakillik va auditoriyaning xilma-xilligi. Inklyuziv marketing kampaniyalar har xil ko'rinishdagi gender shaxslarga yo'naltirilgan. Reklama jarayoniga turli xil tajribaga ega har xil

shaxslarlarni jalb qilish orqali keng auditoriyaga ega bo'lish imkoniyati oshadi.

5. Imkoniyatlarni kengaytiruvchi xabarlar. Gender yo'naltirilgan marketing ana'nalardan chetga chiqqan holda insonlarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Asosiy urg'u har bir shaxsning huquq va imkoniyatlaridan teng foydalana olishiga ishonch hosil qildiradi. Shu bois, ko'pchilik ayollar boshlagan biznesning reklamadagi asosiy yordamchilari "ijtimoiy tarmoqlar" hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonda ayollar ishtirokidagi tadbirkorlik faoliyatida o'z brendlarining reklamasi asosan "ijtimoiy tarmoq"lar, xususan Telegram va Intagram orqali amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekistonda ayollar uchun pijama ishlab chiqaruvchi MiMari brendi yoki Millaicandle brendi ostida shag'am ishlab chiqaruvchi korxonalar birinchi mijozlarini shu yo'l bilan topgan.

Yakuniy qism. Ayollar ishtirokidagi tadbirkorlikka investitsiya kiritish bu nafaqat to'g'ri qaror, balki strategik ahamiyatga ega sarmoyadir. Buning natijasida ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari ruyobga chiqishiga xizmat qiladi. Masalan, 2021-yili "BMT ayollar" tuzilmasi tomonidan Ayollar tadbirkorligi EXPO hamkorlik platformasi yaratildi. Yevropa va Markaziy Osiyo hududida ayollar tadbirkorligi ekotizimini yaratishga xizmat qilishning asosiy maqsadi hisoblanadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETT) va Turkiyaning Yulduz Holding kompaniyasi domiy hamkorlari sanaladi. Xususan, "BMT ayollar" tuzilmasi hamkorligida Markaziy Osiyo davlatlarida har yili Tadbirkor ayollar ko'rgazmasi tashkil etiladi. 2023-yili Qirg'izstonda "Tadbirkor ayollar EXPO 2023" ko'rgazmasida mamlakatda faoliyat yurituvchi OAJ "Kaindi-Kant", OAJ "Koshoy", YoAJ "Qirg'iz Fond Birjasi", MArt Gallery galereyasi, Dasturiy ta'minot va xizmati yaratuvchilarining Qirg'iz assotsiatsiyasi, OAJ "Qirg'iz banklar uyushmasi" yirik olti kompaniyasi xususiy sektorda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish printsiplari (WEPs)ni tan oladi va o'zining ichki boshqaruv siyosatida foydalanishni tan oladi¹³.

¹¹ Mental Health Tips // <https://www.toms.com/en-us/mental-health-resources>

¹² A powerful story of Faith, Resilience and inspiration <https://www.beautybakerie.com/collections/all-face-products>

¹³ Сателлитное мероприятие "Выставка женского предпринимательства EXPO 2023" подчеркивает приверженность Кыргызстана обеспечению гендерного равенства и расширению экономических прав и возможностей женщин // [https://eca.unwomen.org/ru/stories/tematicheskaya-statya/2024/01/satellitnoe-meropriyatie-](https://eca.unwomen.org/ru/stories/tematicheskaya-statya/2024/01/satellitnoe-meropriyatie)

Investorlarni o‘qitish dasturlarida gender jihatlarni inobatga olish, gender yo‘naltirilgan mavzularni qo‘shish taqozo etiladi. Shu kabi seminarlar orqali adolatli investitsiyaviy amaliyot yo‘lga qo‘yiladi.

Ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanatni saqlash. Ishga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar bugungi kunga kelib ish bilan shaxsiy hayot o‘rtasida muvozanatga erishish uchun qulay ish grafisini yaratish kontseptsiyasiga tayanadi. Ayollar ishtirokidagi biznes-modellar qulay ish grafisini yaratish faqat pragmatik qaror sifatida emas, balki

vystavka-zhenskogo-predprinimatelstva-expo-2023-podcherkivaet-priverzhennost-kyrgyzstana-obespecheniyu-gendernogo-ravenstva-i-rasshireniyu-ekonomicheskikh-prav-i-vozmozhnostey-zhenschin

strategik imperativ sifatida, ya‘ni ayollarning huquq va imkoniyatlaridan foydalana olish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta‘kidlash kerakki, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning tadbirkorlik faolligini oshirish, kasbga o‘qitish va bandligini ta‘minlash, tadbirkor ayollarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini yanada oshirish mamlakatimizning gender tenglik siyosatining asosiy qismi hisoblansa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki tadbirkorlik – iqtisodiyotning asosiy drayveri. Ayollar ishtirokidagi tadbirkorlik esa o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lganligi bois, davlat tomonidan alohida e‘tiborni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Business_Model_Canvas
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-maydagi “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 292-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6931871>.
3. Tadbirkor ayollarni qo‘llayotgan tashkilot endi xalqaro maqomda // <https://yuz.uz/news/tadbirkor-ayollarni-qollayotgan-tashkilot-endi-xalqaro-maqomida>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyuldagi “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-329-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/6126565>.
5. “Online-mahalla” axborot tizimi ishlab chiqishdan ko‘zlangan bosh maqsad // <https://online-mahalla.uz/>
6. Yagona milliy mehnat tizimi — my.mehnat.uz saytidan foydalanish bo‘yicha video qo‘llanmalar // <https://mehnat.uz/uz/pages/yagona-milliy-mehnat-tizimi-mymehnatuz-saytidan-foydalanish-buyicha-video-qullanmalar>
7. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-sonli Qonuni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son // <https://lex.uz/ru/docs/97664>.
8. Global Gender Gap Report 2023 // https://www3.weforum.org/docs/WEF_GGGR_2023.pdf
9. Discover our purpose // <https://www.thebodyshop.com/en-gb/about-us/brand-values/a/a00006>
10. Mental Health Tips // <https://www.toms.com/en-us/mental-health-resources>
11. A powerful story of Faith, Resilience and inspiration // <https://www.beautybakerie.com/collections/all-face-products>
12. Сателлитное мероприятие “Выставка женского предпринимательства EXPO 2023” подчеркивает приверженность Кыргызстана обеспечению гендерного равенства и расширению экономических прав и возможностей женщин // <https://eca.unwomen.org/ru/stories/tematicheskaya-statya/2024/01/satellitnoe-meropriyatie-vystavka-zhenskogo-predprinimatelstva-expo-2023-podcherkivaet-priverzhennost-kyrgyzstana-obespecheniyu-gendernogo-ravenstva-i-rasshireniyu-ekonomicheskikh-prav-i-vozmozhnostey-zhenschin>

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas‘ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O.,
Razzakova N., Sobirova E.,
Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 29.07.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

